

**Urganch davlat pedagogika instituti rektorining
2024-yil 08-avgustdagi 124-IB sonli buyrug‘idan ko‘chirma**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi
№ 17-sonli qarori ijrosini ta‘minlash
to‘g‘risida**

2024/2025-o‘quv yili uchun Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi 17-son qaroriga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni institutning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish jarayonini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni Urganch davlat pedagogika institutining bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishlariga o‘qishga kiruvchilarning suhbat jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha mas‘ul (U.Sheripov)ga:

- suhbat jarayonlarini shaffof, adolatli va yuqori saviyada o‘tishi ta‘minlansin;
- suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag‘iga har bir abituriyent bilan o‘tkazilgan suhbat natijasiga ko‘ra ball belgilab borilishi va imzolanishini nazorat qilish; suhbat jarayonida muammoli holatlar yuzaga kelgan taqdirda zudlik bilan vazirlik rahbariyatini xabardor qilish va yechimi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilsin.
- har bir ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan tartib asosida alohida Suhbat komissiyasi tashkil etilsin (1-ilova) va faoliyati yo‘lga qo‘yilsin;
- suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari hamda xolislarni kuzatuvchi sifatida jalb etilishi yo‘lga qo‘yilsin;
- abituriyentlarga beriladigan savollarni belgilangan tartibda tasdiqlab e‘lon qilingan baholash mezonlariga muvofiqligi ta‘minlansin;
- institutning <https://urspi.uz/uz> veb-sayti va imtihon.edu.uz platformasida suhbat jarayonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovozi tarzda onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish hamda kunlik videokuzatuv yozuvlarini saqlanishini shaxsan nazorat qilinsin;
- suhbat jarayonlarining har bir holatini jumladan, abituriyentning imtixon topshirish jarayoni, suhbat komissiyasi tomonidan abituriyentning suhbat natijasini qaydnomaga kiritilishi va sifatli video tasvirga olinishi ta‘minlansin;
- suhbat jarayonlari yozilgan video tasvir ma‘lumotlarini institutda majburiy tartibda 3 yil muddat davomida saqlanishi ta‘minlansin;
- muayyan ta‘lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijalariga ko‘ra suhbatdan o‘tganlar ro‘yxatini shu kunning o‘zida abituriyentlarga o‘qib

eshittirilishini nazoratga olinsin va institutda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etilsin (2-ilova);

- talabalikka tavsiya etilganlarning umumiy ro'yxatini suhbat jarayoni to'liq yakunlangandan so'ng bir kun muddatda institutning <https://urspi.uz/uz> veb-saytida e'lon qilish ishlari amalga oshirilsin.

2. Institut raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish markazi boshlig'i (O.Matsapayev) ga:

- institutda suhbat jarayonlari imtihon.edu.uz platformasida jonli (onlayn) efirda ovozli holda sifatli uzatilishi yo'lga qo'yilsin.

3. Bosh hisobchi v.v.b. (S.Yakubov)ga:

- Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash institut talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida institutning byudjetdan tashqari topilgan mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

4. Devonxona mudiri (D.Bekberganova)ga:

Mazkur buyruq o'rnatilgan tartibda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultet dekanlari e'tiboriga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Qabul komissiyasi mas'ul kotibi U.Sheripov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli qarori

Rektor

Aslidan to'g'ri d.m



F.Madraximova

D.Bekberganova